
INSON QADRI ULUG‘LANGAN YURT



Deputat tashabbusi

Inson qadri ulug‘langan yurtida yashar ekanmiz, xukumatimizning g‘amxo‘rligi, atrofimizdagi insonlarning mehr va muhabbati qalbimizda g‘urur va iftixor tuyg‘ularini oshiradi. Qo‘sh tepa tumani Xo‘jaqishloq mahalla fuqarolar yig‘ini, Istirohat ko‘chasi, 2-xonadonda istiqomat qiluvchi Manzuraxon To‘xtasinova taqdir sinovlari tufayli yurish imkoniyati cheklanib, qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan edi.



“Adolat” SDPdan Xalq deputatlari Qo‘sh tepa tuman Kengashiga deputatlikka saylangan Dilrabo Uzaqovanning tashabbusi va say‘-harakati bilan Manzuraxon opaga xomiylar tomonidan nogironlik aravachasi berildi. Bunday e‘tibordan boshi ko‘kka etgan ayol yurtga tinchlik, omonlik tilab, duolar qildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2023-07-19 08:55:05